

FARMOYISH HUJJATLARI MATNIDAGI SO‘Z BIRIKMALARI TAHLILI

Shodiyeva Mehribon Faxriddin qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rasmiy uslubning asosiy hujjatlaridan biri – farmoyish hujjatlari, ularning sintaktik jihatlari haqida, o‘zbek tilidagi farmoyish hujjatlari matnidagi so‘z birikmalari tahlili yuzasidan qisqacha ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: rasmiy uslub, farmoyish hujjatlari, sintaksis, so‘z birikmasi, gap, moslashuvli so‘z birikmalari, boshqaruvli so‘z birikmalari, fe’lli so‘z birikmalari.

Sintaksis (gr. syntaxys – tuzish, qurish) ning asosi – gap haqidagi ta’limot. Gap aslida, so‘zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so‘zning bog‘lanish qonuniyati, so‘z birikmasi ham sintaksisda o‘rganiladi. So‘z birikmalarini o‘rganish ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas.

Sintaksis so‘zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvnilisoniy mohiyatini tekshiradi. So‘z birikmasi va gap – sintaksisning asosiy birliklari. Shunga ko‘ra, sintaksis ikkiga bo‘linadi:

- a) so‘z birikmasi sintaksisi;
- b) gap sintaksisi.

Dastlab, sintaksisning bir qismi bo‘lgan so‘z birikmasiga to‘xtalishni lozim deb topdik. So‘z birikmasi birikuvchi so‘zlarning hokim-tobelik munosabati asosida yuzaga keladi. Bunda izohlanuvchi a‘zo kengayuvchi, izohlovchi a‘zo kengaytiruvchi a‘zo deb ham yuritiladi. Demak, so‘zlarning bir-biri bilan hokim-tobelik munosabati so‘z birikmasini hosil qiladi. Barcha rasmiy doiradagi hujjatlarda qoliplashgan, turg‘unlashgan so‘z birikmalari faol qo‘llaniladi

Farmoyish hujjatlari turli xil mavzularda, mazmunda yoziladi, turli xil masalalarni, muammolarni hal qilish yuzasidan, tantana va kechalar o‘tkazish, ishdan bo‘shatish, ishga joylashish bo‘yicha va hokazolarda chiqariladi. Shuning uchun ham so‘z birikmalari tahlilida faqatgina barcha hujjat turlarida birdek qo‘llaniladigan, turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalarini olishni lozim deb topdik. Ularni misollar orqali ko‘rib o‘tamiz:

Buyruqda:

- ... sonli buyruq;
- rahbarlik uchun qabul qilinsin;
- ijro uchun qabul qilinsin;
- farmonga muvofiq tasdiqlansin;
- ilovaga muvofiq inobatga olinsin;
- ma’lumot uchun qabul qilinsin;
- ... buyruqlarning ijrosi;



- ijrosini ta'minlash maqsadi;
- ijrosini ta'minlash maqsadida buyuraman...;
- ... vazifalarini yuklayman;

Farmoyishda:

- ... zimmasiga yuklatilsin;
 - farmoshishning ijrosi;
 - ijrosini nazorat qilmoq;
- ... mas'ul etib belgilansin;
- farmoyishning bajarilishi;
 - ... haqidagi taklifi;
 - ro'yxat bo'yicha yuborilsin;
 - ... vazifalarni amalga oshirish maqsadida;
 - ... munosabati bilan yuklayman;
 - ishlarni nazorat qilish ... ga topshirilsin va shu kabi birikmalarga duch kelishimiz mumkin.

Qarorda:

- ijrosi yuzasidan qaror qiladi;
- qarorning bajarilishi;
- bajarilishini nazorat qilmoq;
- ... zimmasiga yuklansin;
- ilovaga muvofiq kiritilsin;
- zarur ishlarni amalga oshirsin;
- mas'ul xodimlarga yuklansin;
- qarorning mazmun-mohiyati.

Ko'rsatmada:

- ... haqidagi ko'rsatma;
- vazifalarni yuklayman;
- quyidagilarni tavsiya etaman;
- ... ga yuklayman;
- ijro uchun tavsiya etaman va hokazolar.

Yuqoridagi misollar asosida ko'rishimiz mumkinki, biz tahlil qilgan aksariyat misollar boshqaruvli, fe'lli so'z birikmalari hisoblanadi. Xususan, hujjatlar qaysi tashkilot yoki vazirlik tomonidan chiqarilgan bo'lsa, ular har doim moslashuvli so'z birikmalari tarzida bo'ladi:

Buyruqda:

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I;
YUNUSOBOD TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMI MUDIRINING
BUYRUG'I;*

*"DILNURA FAZOSI YUKSALISH SARI" MCHJ NING BUYRUG'I;
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG'I.*



Farmoyishda:

*O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMOYISHI;
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
FARMOYISHI.*

Qarorda:

*O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI;
NAZORAT QILUVCHI ORGANLAR FAOLIYATINI
MUVOFIQLASHTIRUVCHI RESPUBLIKA KENGASHINING QARORI;*

*O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING
QARORI; O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI
KENGASHINING QARORI; O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASINING QARORI.*

Ko‘rsatmada:

*O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA QO‘MITASINING
KO‘RSATMASI.*

*O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
KO‘RSATMASI.*

Farmoyish hujjatlari xilma-xil mavzularni qamrab oladi. Shuning uchun ham hujjatlar tilidagi so‘z birikmalarini tahlil qilishda ularni ko‘plab hosil qilish mumkin. Yuqoridagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkinki, hujjatlar matnida bir qator fe‘lli so‘z birikmalari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos qoliplarga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020.
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1983.
3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent. O‘qituvchi. 1985.
4. Hakimova O. Mantiq va nutq madaniyati. – Toshkent. Xalq merosi. 2002.
5. Xalilova M. O‘zbek tili stilistikasi asoslari. Farg‘ona. 2009.
6. Keldiyorova G., Ablayeva N. O‘zbek tilida ish yuritish. Toshkent. 2009.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. 2009.
7. Головач А.С. Оформление документов. Киев – Донецк, 1983.
8. Shodiyeva M, O‘zbek tilidagi farmoyish hujjatlarining til xususiyatlari. Magist. dissertatsiyasi. – Toshkent. 2022.
9. LEX.UZ – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi.
10. Wikopediya.uz.
11. Savodxon.uz.